
TUMANIMIZDAGI BARCHA MAKTABLARDA “BIRINCHI QO’NG’IROQ” TADBIRLARI BO’LIB O’TDI



Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz

An’anaga muvofiq, o‘quv yilining birinchi kunida tumanimizdagi barcha umumta’lim maktablarida "Bilimlar kuni" munosabati bilan "Birinchi qo‘ng‘iroq" tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

Prezident ta’lim muassasalari Agentligi Qo’shtepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabida ham "Bilimlar kuni" keng nishonlandi.

Tadbirda tuman hokimi Ilyosbek Novikov ishtirok etib, yangi 2022-2023 o‘quv yili bilan barcha bilimga chanqoq o‘quvchi yoshlarni samimiy muborakbod etdi.

Shuningdek, ushbu muassasaga yuqori ball bilan o‘qishga kirgan zukko o‘quvchilarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Darhaqiqat, "Bilimlar kuni" barcha o‘quvchilar uchun g‘oyat quvonchli, hayajonli damlarga boy kun bo‘ldi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-09-05 10:52:52